



ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 5-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN

3093-9089

Бухоро - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№ 5-Son 2026-yil

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056
sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorvich - Texnika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Xamidov Akmal Amrulloevich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari)

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini professori).

Kosimov Ubaydulla Axrorovich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya, ta‘lim texnologiyalari kafedrasini mudiri)

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Muxlisov Sodikjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasini dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Kuleshov Valery Vladimirovich — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Andrienko Elena Vasilyevna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Romm Tatyana Aleksandrovna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Tadjixodjayev Zokirkhoja Abdusattorovich — Doctor of Technical Sciences, Professor.

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

Zarirov Lochin Rustamovich — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improving Educational and Methodological Activities).

Khamidov Akmal Amrulloevich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

Nazarov Akmal Mardonovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Psychology, Bukhara State University.

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

Kosimov Ubaydulla Axrorovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies at the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Mukhlisov Sodiqjon Saidjonovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University.

Tilavov Mukhtor Hasan o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD),
доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор,
академик Российской академии наук (Украина).

Андрienко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор
(Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики,
математики, информационного и технологического образования, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор
(Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории,
гуманитарного и социального образования, г. Новосибирск, Россия).

Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович — доктор технических наук, профессор.

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор
(Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зариров Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-
исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего
образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления по
совершенствованию учебно-методической деятельности).

Хамидов Акмал Амруллоевич — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
директор Центра педагогического мастерства Бухарской области.

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор,
заведующий кафедрой «Психология» Бухарского государственного университета.

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор
(Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по
академической деятельности).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент
кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент
(Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Косимов Убайдулла Ахрорович — доктор философии (PhD) по психологическим
наукам, доцент, заведующий кафедрой педагогики и психологии, образовательных
технологий Центра педагогического мастерства Бухарской области.

Исмадова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии по психологии (PhD), доцент
кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии по педагогическим наукам
(PhD), доцент кафедры «Информационные системы и цифровые технологии» Бухарского
государственного университета.

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент
кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология»
Бухарского государственного университета.

MUNDARIJA:

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
1	<i>RAZAKOV FARXOD KUVONDIKOVICH</i>	TALABALARDA PROKRASTINATSIYA VA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH KO‘NIKALARINI RIVOJLANTIRISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI	7
2	<i>JUMABAEV TIMUR JALGASBAEVICH</i>	SPORT FAOLIYATIDA SHAXSIY RIVOJLANISH VA O‘ZINI TAKOMILLASHTIRISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI	14
3	<i>OLIMOV SHIRINBOY SHAROPOVICH</i>	TALABALARNI KASBIY TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	20
4	<i>FAZLIDDINOV OMADBEK ILYOSBEK O‘G‘LI</i>	RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA MA‘NAVIY TARBIYA MASALALARI	24

Olimov Shirinboy Sharopovich

Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

TALABALARNI KASBIY TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati, maqsad va vazifalari hamda yo‘nalishlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada ta‘lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishning mazmun-mohiyati va uning elementlari yoritib berilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *oliy ta‘lim muassasalari, talaba, kasbiy tayyorlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta‘lim jarayoni, pedagogik tizim, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari.*

Олимов Ширинбой Шаропович

заведующий кафедрой педагогики Бухарский государственный университет, доктор педагогических наук, профессор

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ

Аннотация: *В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются необходимость, цели, задачи и направления использования современных педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. Также освещается сущность организации педагогического процесса в системе образования и его элементы.*

Ключевые слова и фразы: *высшие учебные заведения, студент, профессиональная подготовка, современные педагогические технологии, образовательный процесс, педагогическая система, личностно-ориентированные образовательные технологии.*

Olimov Shirinboy Sharopovich

Head of the Department of Pedagogy at Bukhara State University, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS

Abstract: *This article analyzes the need, goals, objectives and directions of using modern pedagogical technologies in the professional training of students from a scientific and pedagogical perspective. The article also highlights the essence of the organization of the pedagogical process in the education system and its elements.*

Key words and phrases: *higher education institutions, student, professional training, modern pedagogical technologies, educational process, pedagogical system, person-oriented educational technologies.*

Kirish. *Respublikamiz oliy ta‘lim muassasalarida ijodiy fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va mutaxassiliklarni puxta egallagan, har tomonlama sog‘lom avlodni tarbiyalash asosiy dolzarb vazifalarimizdan sanaladi. Ushbu dolzarb vazifalarni bajarish bo‘lajak o‘qituvchilardan yuqori darajadagi bilim, kasbiy pedagogik mahorat, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari bilan qurollangan, xorijiy tillarda erkin muloqot qila olish, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etmoqda. Oliy ta‘lim tizimining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - bu o‘qitishda innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni*

ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish va ijodiy salohiyatli, bilimli, uddaburon, yuksak mahoratga ega komil inson shakllantirishdan iboratdir.

Asosiy qism. Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar negizini shaxsiy ijodiy va faoliyatli yondashuv, tanqidiy-kreativ fikrlash, ilmiy yangiliklarni yaratish hamda hamkorlikning ilg’or strategiyalarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda. Ta’lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishning mohiyati - o’qituvchi hamda talabaning hamkorlikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, ushbu jarayonda bo’lajak o’qituvchi talabaga yuzaga kelgan muammolarni yengishga yordam beradi.

Yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

1. Yangi pedagogik texnologiya asosida dars mashg’ulotlari eng qulay va sodda usullar asosida tashkil etiladi.

2. Dars mashg’ulotining samaradorligini oshiradi.

3. Talabalarining dunyoqarashini oshiradi, tafakkurini rivojlantiradi.

4. Har bir talaba bilan individual munosabat paydo bo’ladi.


5. Xotirani kuchaytiradi.

6. Talabalarni o’z ustida mustaqil ishlashga da’vat etadi.

7. Talabalarni o’z shaxsiy fikrini bayon qilish va uni himoya qilishga o’rgatadi.

Tavsiya etilayotgan tizimning muhim tarkibiy qismlari natijalar, o’quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish, texnologiyalardan iborat bo’lib, maqsadlar natijalar bilan mos kelib uzluksiz zanjir tashkil etadi. Maqsadlarning natija bilan to’la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o’lchov ko’rsatkichi bo’lib xizmat qiladi. Pedagogik tizim boshqaruv, birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o’z maqsad va tuzilishlariga egalar.

Pedagogik tizim texnologiya hisoblanadi, bu qat’iy tashkiliy mantiqqa bo’ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir.



1.2.1-rasm. Pedagogik tizim tuzilishi.

Pedagogik jarayon biz bilamizki, pedagogik tizimda o’tib boradi. Pedagogik tizim - bu tashkil etuvchilarni birlashtirish bo’lib, ular o’zgarishlarda barqarorligicha qolaveradi. Agarda o’zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo’lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o’rniga yangi boshqa xususiyatli tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim - elementlarning juda mustahkam birlashuvidir. Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar variantlari yig’indisi o’zaro bog’liqligi ko’rinishidan iborat bo’ladi: talaba; tarbiyaning maqsadi; tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni; talabalar; tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllari.

Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri turli darajadagi elementlarga batafsil ajratib ko’rsatilishi mumkin.

Qurilgan tizimning tarkibiy tuzilishi emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko‘rsatib o‘tilganlarga qo‘shila olmaydigan pedagogik tizim muhim tarkibiy qismlari shuningdek «Natijalar», «O‘quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish», «Texnologiya»lardan iborat.

Bunday yondashish pedagogik tizim ko‘zlangan maqsadga erishishni ta‘minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo‘ladi. Shuni tasdiqlash kerakki pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Texnologiya - bu qat‘iy tashkiliy mantiqqa bo‘ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir.

Quyida ta‘lim amaliyotida foydalanilayotgan eng xarakterli zamonaviy pedagogik texnologiyalar yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1. **Fanni o‘rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta‘lim jarayonida qo‘llash.** Ushbu texnologiya asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish turli fan sohalarini informatika bilan integratsiyalashni nazarda tutadi, bu esa talabalar ongini axborotlashtirishga va zamonaviy jamiyatda axborotlashtirish jarayonlarini tushunishga olib keladi (kasbiy jihatdan). Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida butun ta‘lim jarayonini tubdan qayta qurishni amalga oshirish mumkin. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali sub‘ektiv munosabatlar "o‘qituvchi-talaba" eng ob‘ektiv munosabatlar "talaba-kompyuter-o‘qituvchi" ga o‘tadi hamda ushbu aloqa orqali psixologik muhit yaxshilanadi, talaba mehnat samaradorligi, ijodiy qobiliyati oshadi.

2. **Mavzuni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash.** Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari talabani ta‘lim tizimining markaziga qo‘yib, uning rivojlanishi uchun qulay, ziddiyatli va xavfsiz sharoit yaratib, uning tabiiy potensialini ro‘yobga chiqaradi. Bu texnologiyada talaba shaxsi nafaqat predmet, balki ustuvor predmetdir; u har qanday abstrakt maqsadga erishish vositasi emas, balki ta‘lim tizimining maqsadidir. U talabalarning o‘z imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos holda individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi.

3. **Intellektual rivojlanish monitoringini olib borish.** Har bir talabaning o‘zlashtirish sifati dinamikasini hamda bilimlarini baholash uchun test va diagrammalar orqali tahlil qilish va diagnostika qilishda aks etadi.

4. **Tarbiya texnologiyalarini talabani kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirishning yetakchi mexanizmi sifatida qo‘llash.** Tarbiya texnologiyalari zamonaviy ta‘lim sharoitida muhim pedagogik omil hisoblanadi. Talabalarni kasbiy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishi uchun qo‘shimcha shakllarga jalb qilish: milliy an‘analari, teatr san‘ati, ijodiy markazlar asosida madaniy tadbirlarda ishtirok etish va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

5. **Didaktik texnologiyalarni ta‘lim jarayonini rivojlantirishning muhim sharti sifatida qo‘llash.** Bu yerda zamonaviy didaktik texnikalar orqali amalga oshirilishi mumkin. O‘quv adabiyotlari o‘yin, dekoratsiya va himoya loyihalari bilan mustaqil ishlash, audiovizual metodlar orqali o‘rganish, "konsultant" tizimi guruhi, tabaqalashtirilgan ta‘lim yo‘llari, "kichik guruhlar" tizimi va boshqalar kiradi. Odatda amaliyotda bu metodlarning turli kombinatsiyalaridan foydalaniladi.

6. **Innovatsion texnologiyalarni joriy etishning psixologik-pedagogik ta‘minoti asosida ta‘limni tashkil etish.** Ta‘lim jarayonida ma‘lum yangiliklardan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslanganligi taxmin qilinadi. Uslubiy kengashlarda, seminarlarda, ushbu sohadagi yetakchi mutaxassislar bilan uchrashuvlarda ularning tahlili olib boriladi. Zamonaviy xorijiy ta‘limda o‘quv jarayonida pedagogik yangiliklarni qo‘llashning keng imkoniyatlari mavjud. Ularni qo‘llash samaradorligi ta‘lim muassasasida o‘rnatilgan an‘analarga, pedagog xodimlarning bu yangiliklarni idrok eta olish qobiliyatiga va ta‘lim muassasasining moddiy-texnik bazasiga bog‘liq.

Hozirgi kunda oliy ta‘limda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda innovatsion rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish rejimiga o‘tish istiqbollari kabi dolzarb masalalarga e‘tibor qaratish lozim.

Zamonaviy pedagogik texnologiya ta‘limning asosiy yo‘nalishi, mazmunini, o‘qitish shakllari, usullarini tanlashning nazariy asosini belgilab beradi. Fikrimizcha, ijodiy qobiliyatlarini va ichki imkoniyatlarini to‘la namoyon qilishga asos bo‘ladi. Bunday texnologiya eng avvalo, ta‘limning har

bir bosqichida bo‘lajak pedagoglar bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam o‘z ustida ishlash (mustaqil va eksternat) holda bilim egallashi lozim.

Shu talabdan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar falsafiy va pedagogik-psixologik jihatdan insonparvar xarakterda bo‘lishi mutlaqo zarur. Insonparvar pedagogika va psixologiya fanlari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda o‘ziga xos individualligi, ya’ni uning shaxsiga yo‘nalganligiga asosiy e’tiborni qaratishlari lozim.

Xulosa. Ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va jadallashtirilishi shunda namoyon bo‘ladiki, ular o‘qituvchining talabaga ta’sir ko‘rsatishini, ularning bilish faoliyatini faollashtirish asosini talabaning ta’lim jarayonida maqomini o‘zgartirish, unga ta’lim-tarbiyaga rag‘bat uyg‘otishga sharoit yaratadi. Shuningdek, o‘qituvchiga talabalar faoliyatini ta’lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq boshqarish imkoniyatini beradi. Talabalarning bilim egallashlarini osonlashtiradi. Ularning oz vaqtda ko‘proq bilim egallash, ruhan va aqliy rivojlanishlariga sharoit yaratadi. O‘z navbatida o‘qituvchi pedagogik mahorat va bilimlarni qo‘llashga nisbatan oshirilgan talablarni qo‘yadi. Eng muhimi jamiyatimizning taraqqiyot darajasiga mos ravishda yoshlarning bilim egallashi va kasb o‘rganishini jadallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son. 23.09.2020. – T., 2020. – 40 b. // <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Atabaeva, K. R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati / Molodoy uchenyy jurnali. — 2017. — № 24.1 (158.1). — S. 7-9.
3. Olimov Sh. Sh., Durdiyev D.Q. Pedagogik texnologiya. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashryoti, 2019. – 184 b.
4. Ochilov M. O‘qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti // “Xalq ta’limi“ jurnali, 1999, 6-son.- B 32-35.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://aspec.uz>
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026. № 5-Son.